
TUMAN HOKIMI YANGI O'QUV YILIGA TAYYORGARLIK HOLATINI O'RGANDI



Qo'shtepa tumani hokimi A.Abdullayev 11-maktabda bo'lib obodonlashtirish tadbirlari hamda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ishlari qay tartibda olib borilayotganligi va amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Tuman hokimi tomonidan maktab rahbariyatiga, yangi o'quv yilini yaxshi tayyorgarlik bilan boshlash borasida kerakli taklif va tavsiyalar bildirib o'tildi.

Shuningdek tuman rahbari tomonidan 36-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi va oziq-ovqat mahsulotlari saqlanadigan xonalar holati ko'zdan kechirildi.

Tashrif doirasida DMTT tarbiyalanuvchilari uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirish barobarida, muassasalar atrofidagi obodonlashtirish ishlari yuzasidan ham mutasaddilarga ko'rsatma va tavsiyalar berib o'tildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-07-17 15:55:30